

YANGI O‘ZBEKISTON - YANGI TARAQQIYOT

Yusupov Shuhrat Abdimo‘minovich

Sariosiyo Abu Ali Ibn Sino jamoat salomatlik texnikum direktori

Annotasiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston " inson-jamiyat-davlat" konsepsiyasining jamiyat hayotidagi o‘rni, o‘zgarishlari va taraqqiyot strategiyasidagi ilgari surilgan ma’naviy-marifiy sohasidagi islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi yuksak ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, jamiyat, taraqqiyot, strategiya, ijtimoiy islohotlar tamoyil, qadriyat, Renessans, ilm-fan.

Anotation: This article discusses the role of the concept of "man-society-state" in the life of society, its changes and the high importance of reforms in the spiritual and educational sphere, socio-economic development, promoted in the development strategy.

Key words: New Uzbekistan, society, development, strategy, social reforms, principle, value, Renaissance, science.

Kirish.

Bugun yurtimizda davlatimiz tomonidan yoshlarning har tomonlama barkamol va yetuk, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan insonlar bo‘lib yetishishlari uchun barcha sharoitlar yaratilib, katta e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda. Zero, yoshlar – har qanday jamiyatning ertasidir. Prezidentimiz rahbarligida yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ijobiy samaralar berib, aholining turmush farovonligi, ma’naviyati yuksalmoqda. Xalqaro miqyosda O‘zbekistonning nufuzi ortib bormoqda. Ana shu o‘zgarishlar, erishilayotgan yutuqlar, bunyodkorlik ishlari, umuman, islohotlarning mazmun-mohiyati bugungi kunda xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan. Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida mamlakatimiz barcha sohalarda taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi.

Asosiy qism.

Ma’lumki, har bir davlat taraqqiy etib yuksak rivojlanib kelayotgan davlatlar tajribasiga ko‘ra, har bir xalq o‘z oldiga ulug‘ va istiqbol maqsadlarini qo‘yishi hamda uni amalga oshirish ishlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallaydi. Bugungi kunda O‘zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanib bormoqda, ya’ni “ Inson, uning huquqlari va erkinlari, ayniqsa, qadr – eng muhim qadriyat “ degan tamoyil dolzarb masala sifatida e’tirof etilmoqda. Eng muhimi: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan ”davlat – jamiyat – inson “ tamoyili aksincha ” inson- jamiyat -davlat“ tamoyiliga

o'zgartirilmoqda. Avvalo, xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi, aholining hayot darajasi va sifatini yaxshilash davlat siyosatining bosh mezonini etib belgilanmoqda.

Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomiga aylandi. Mazkur strategiya 7 ta yo'nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan. Yangi taraqqiyot strategiyasidagi maqsadlarda ham yoshlar bilan ishlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash, siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, siyosiy jarayonlarga faol jalb qilish, yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida urg'u berilmoqda. Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma'naviy uyg'onish jarayonlari milliy o'zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa "Renessans" – uyg'onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon. Ma'lumki, bugungi O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga – Birinchi (ma'rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga asos bo'lgan. Bu jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda. Ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir. Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir. Bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiy tizimi to'liq qayta qurilmoqda, qanchalik og'ir bo'lmasin, bozor mexanizmlarini amalda joriy etishni boshladik. Bu esa yangi hujjat – Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida Yangi O'zbekistonning poydevorini tiklash va binosini qurishga qaratilgan. Bu buyuk bunyodkorlik jarayoni 2026 yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi va yilma-yil amalga oshirib boriladi. Avvalambor, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", degan nomning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratishimiz lozim. Zero, bu nomning kelib chiqishi, bir qator muhim omillarga borib taqaladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi ekanini anglatadi. Agar Harakatlar strategiyasida 5 ta ustuvor yo'nalish belgilab olingan bo'lsa, Taraqqiyot

strategiyasida ham ushbu ustuvor yo‘nalishlar davomiyligi saqlab qolingan. Shu bilan bir qatorda, taraqqiyot o‘zgarishlarining yangi tarixiy bosqichda davom ettirilishi ko‘zda tutilgan holda, Taraqqiyot strategiyasiga 2 ta yangi ustuvor yo‘nalish qo‘shilgan. Bulardan biri – ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi – O‘zbekistonning dunyoda yuz berayotgan global muammolarga munosabati negizida belgilangan yangi ustuvor yo‘nalishdir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining tasdiqlanishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish hamda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan ulkan maqsad va vazifalarimizga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi//<https://www.lex.Uz>
2. <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/jangi-zbekiston-taraiet-strategijasi-davlat-zhamijat-inson-tamojilidan-inson-zhamijat-davlat-tamojiliga-tilmoda>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/taraqqiyot-strategiyasi-yangi-o-zbekistondagi-ma-naviy-islohotlar-asosi>
4. <https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-taraqqiyotning-yangi-bosqichiga-qadam-qoydi-77027>